



OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETILISHI

ORGANIZATION OF INCOME AND EXPENDITURE ACCOUNTING HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

¹Kurbanov Jaloladdin
Yuldashbayevich

¹Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqola oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobini tashkil etish jarayonlarini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan. Moliyaviy hisob-kitoblarning to'g'ri va samarali yuritilishi ta'lim muassasalarining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritish tartiblari, moliyaviy hisobotlarning shakllanishi va ularning monitoringi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada moliyaviy nazorat mexanizmlari, smetalarning ijrosi va hisob-kitoblar tartibi haqida ham ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari uchun samarali moliyaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Eng. - This article is focused on a systematic study of the processes for organizing income and expenditure accounting in higher education institutions. The accurate and efficient management of financial records plays a crucial role in ensuring the stable operation of educational institutions. The article analyzes the procedures for accounting for the state budget and extrabudgetary funds, the formation of financial reports, and their monitoring. It also provides information on financial control mechanisms, the execution of estimates, and accounting procedures. In addition, particular attention is given to enhancing economic stability in educational institutions through the implementation of effective financial management practices.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ oliy ta'lim, daromadlar hisoboti, xarajatlarni hisobi, budjet, budjetdan tashqari mablag'lar, smeta, moliyaviy nazorat, budjet jarayoni, moliyaviy resurslar.

❖ higher education, income statement, expense accounting, budget, extrabudgetary funds, estimate, financial control, budget process, financial resources.

Kirish.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida buxgalteriya hisobi va audit sohasida ko'pgina o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish, daromad va xarajatlarni hisobini yuritishning zamonaviy yondoshuvlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi 30-40 yillar

davomida jahonda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning bir necha modellari yuzaga keldi. Ko'p modellar bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib, oliy ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirish darajasini kamayib borishiga va xususiy moliyalashtirishning o'sib borishiga asoslanadi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy

mustaqillik berilishi bilan bog'liq keskin o'zgarishlar, boshqa sohalarida ham mustaqillik muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, sohaning rivojlanishi davlat oliy ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar yana bir yangi tizimni shakllantirishga, bir bosqichdan boshqa bosqichga qadam qo'yishga va shu bilan bir qatorda rivojlanishni yanada takomillashgan ko'rinishiga ega bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Jahonda oliy ta'lim tashkilotlariga oid olib borilayotgan islohotlar davlat oliy ta'lim tashkilotlarining xarajatlari hisobi yuzasidan ilmiy metodologik qarashlarni va uning ichki auditini takomillashtirishni to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, xalqaro tajribada davlat oliy ta'lim tashkilotlari ichki auditi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni, yaratilgan standartlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmaydi. Shu boisdan xalqaro standartlarga asoslangan uslubiyotni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan keskin o'zgarishlar tizimni shiddat bilan rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tizimda ayrim muammoli vaziyatlarni bartaraf etish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun keng qamrovli sifatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda xorij tajribasi asosida tizimni takomillashtirishga qaratilgan yo'nalishlarni ham ilmiy ham metodik tomondan yangilash bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida «Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida ustuvor maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim» ekanligini ta'kidlaydilar. Shuning natijasida O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish

yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromadlar va xarajatlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim muassasalari o'z faoliyatini samarali davom ettirish uchun aniq va shaffof moliyaviy hisob-kitob tizimini shakllantirish zarur. Daromadlar va xarajatlarning hisobi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining iqtisodiy asoslarini belgilab, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilish, rejalar tuzish va kelajakdagi moliyalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy vosita hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlar hisobini tashkil etish nafaqat budjet mablag'lari asosida, balki budjetdan tashqari manbalar hisobidan ham amalga oshiriladi. Shu sababli, hisob tizimining samarali ishlashi uchun barcha moliyaviy oqimlarni to'liq va aniq qayd etish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va muassasa faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv, xususan daromadlar va xarajatlar hisobi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, xalqaro tajribada B. Needles, R. Anthony, H. M. Bhimani kabi olimlar tomonidan ta'lim muassasalarida budjetlashtirish, ichki moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobi tizimining samaradorligi muhokama qilingan. Ularning ishlarida oliy ta'lim sohasida daromad manbalarining diversifikatsiyasi, xarajatlarni faoliyat yo'nalishlari kesimida tahlil qilish va natijalarga yo'naltirilgan moliyaviy boshqaruv konsepsiyasi ilgari surilgan [1, 2, 3].

O'zbekiston Respublikasida esa oliy ta'lim moliyalashtirish tizimi, xarajatlarning tuzilmasi va samaradorligi masalalari bo'yicha mahalliy olimlar iqtisod fanlari doktori T.Sh. Husanov, J.M. Rahimov, M.A. Yusupova va N.A. To'xtaboyevlarning ilmiy ishlari e'tiborga loyiq [4, 5, 6]. Ular o'z izlanishlarida davlat oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larini boshqarish, kontrakt asosidagi daromadlarni hisobga olish va ularni maqsadli ishlatish tizimini yoritib bergan. Shu bilan birga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar (masalan, Oliy ta'lim muassasalari uchun buxgalteriya hisobi reglamentlari, xarajatlar smetasi shakllari, 2021-2025-yillarga mo'ljallangan ta'lim sohasini rivojlantirish strategiyasi) ushbu maqolada tahlil qilingan asosiy manbalar qatoriga kiradi [7, 8]. Tahlil natijalariga ko'ra, mavjud adabiyotlarda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy hisobi tizimi, ayniqsa raqamli transformatsiya, samaradorlikni baholash, ichki audit mexanizmlari va xalqaro standartlarga muvofiqlik jihatlarida hali to'liq tadqiq etilmagan jihatlar mavjudligi aniqlanmoqda. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobini tashkil etish jarayonining mohiyati va uning ahamiyatini ochib beradi. Ta'lim muassasalarining samarali faoliyati uchun moliyaviy resurslarning to'g'ri boshqarilishi zarur, va bu boshqaruvning asosi sifatida hisob-kitob tizimi xizmat qiladi. Daromadlar va xarajatlarning aniq va shaffof hisoboti oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim orqali ta'lim tashkilotlari o'z mablag'larini oqilona taqsimlaydi, moliyaviy rejalashtirishni amalga oshiradi va budjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanadi. Shu bois, hisob tizimining ishonchliligi va to'liqligi muhimdir. Shu bilan birga maqolada

moliyaviy hisobotlarning shakllanishi va moliyaviy tahlilning roli ko'rsatib o'tilgan. Bu jarayonlar tashkilotga moliyaviy faoliyatni nazorat qilish va takomillashtirish imkonini beradi, shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Daromadlar va xarajatlar hisobi o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, ularning muvofiqligi ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, moliyaviy boshqaruv tizimida bu ikki elementning uyg'unligi va aniq hisoboti moliyaviy intizomni oshirish va resurslarni optimal taqsimlash uchun muhimdir. Umuman olganda, maqolada ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan hisob tizimi va boshqaruv jarayonlarini yoritiladi. Bu oliy ta'limning sifatini va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayoni budjet hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Mazkur jarayon bevosita oliy ta'lim muassasalari budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirish mablag'lariga oid buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasalari budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va ular bilan bog'liq xarajatlarni bir moliya yili uchun tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari asosida nazorat qilib borilishi kerak (1-rasm).

Oliy ta'lim tashkilotlarining daromadlari yuzasidan bir moliya yili uchun alohida tarzda smetalar tuziladi. Xarajatlar smetasi bo'yicha moliya yili davomida amalga oshirilishi kutilayotgan xarajatlarning rejasi shakllantirilsa, budjetdan tashqari mablag'lar

bo'yicha daromad(tushum)lar rejasida moliya yili davomida kutilayotgan daromadlarning turlari bo'yicha tushumlar prognozi keltiriladi. Xarajatlar qismida esa, oliy ta'lim muassasalarining moliya yili boshidagi shaxsiy

g'azna hisobvarag'idagi budjetdan tashqari mablag' qoldig'i va moliya yili davomida kelib tushishi kutilayotgan mablag'lar hajmidan kelib chiqqan holda xarajatlarning rejasini aks etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larga oid tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari tarkibi

 Budjet mablag'lari	 To'lov kontrakt tushgan mablag'lar	 Oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish jamg'armasi	 Boshqa budjetdan tashqari mablag'lar
---	---	---	---

1-rasm. Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar tarkibi [9]

Hozirgi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi muassasaning moliyaviy xarajatlari tarkibini, davlat budjeti va budjetdan tashqari manbalar hisobidan ajratiladigan mablag'larning maqsadli va samarali yo'naltirilishini ta'minlaydigan tezkor va aniq axborotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ushbu tizim orqali oliy ta'lim muassasalaridagi xarajatlar va daromadlar hisobi to'g'ri yuritilishi nazorat qilinadi, budjet mablag'larining mantiqiy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ta'minlanadi, sintetik hamda analitik hisob turlari yuritilib, tegishli hisobotlar shakllantiriladi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar hisobining to'g'ri tashkil qilinishi va uning to'laqonli nazorati yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga berilgan moliyaviy mustaqillik bunga yaqqol misol bo'la oladi. Tashkilotlar

tomonidan shakllantiriladigan budjet va budjetdan tashqari mablag'lar uchun tuziladigan xarajatlar smetasi puxta hisoblangan bo'lishi, uning ijrosi ustidan alohida va samarali nazorat mexanizmi yo'lga qo'yilishi zarur hisoblanadi.

Davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlari hisobini tashkil etilishini o'rganishdan oldin ularning tarkibini va turkumlanishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlari budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar tarzida ikki guruhga bo'linadi. Davlat budjeti tomonidan davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetasi asosida sarflangan mablag'lari budjet mablag'lari, tashkilotning to'lov-kontrakt va tadbirkorlik asosida hisob raqamiga kelib tushgan mablag'lar hisobidan ishlatilganlari esa, budjetdan tashqari mablag'lar hisoblanadi. O'z navbatida, har ikkala turdagi xarajatlar ham tarkibiy qismlarga ajratiladi.



2-rasm. Budjet tashkilotlari xarajatlari moliyalashtirish tartibi [9]

Budjet tashkilotlarining shu jumladan, davlat ta'lim tashkilotlarining ham xarajatlari 4 ta guruh doirasida amalga oshiriladi. Tashkilotlarning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha smetalari shu to'rt guruhni o'z ichiga oladi va belgilangan budjet tasniflari bilan turkumlarga ajratiladi. Xarajatlar guruhlariga bo'yicha xarajatlar hisobi tashkil qilinadi, yuritiladi va ular bo'yicha hisobotlar topshiriladi.

«Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari birinchi navbatda xarajatlarni moliyalashtiradi (to'laydi). Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag' o'tkazmasdan I guruh xarajatlarni amalga oshirish taqiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari). Yagona g'azna hisob raqamida, shuningdek, budjet tizimi budjetlarining darajalari bo'yicha tegishli g'azna hisobvarag'ida birinchi va ikkinchi

guruhlar bo'yicha to'lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag'lar mavjud bo'lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to'rtinchi guruhlar bo'yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Davlat ta'lim tashkilotlarida xarajatlarni hisobini yuritish xarajatlarni mazmunidan va turlaridan kelib chiqib xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasi budjet tashkilotining moliyaviy rejasi hisoblanadi. Davlat budjeti tomonidan budjet tashkilotlari uchun ajratilayotgan moliyalashtirish daromad bo'lmasdan faqat tashkilotning xarajatlari hajmi va ularning maqsadli yo'naltirilganligiga teng bo'lgan mablag'larning tushumidan iboratdir. Smeta asosida davlat ta'lim tashkilotlari ehtiyojlar uchun xarajatlarning hajmini aniqlaydi va u narsa joriy yilning budjeti tarkibiga kiritiladi.

1-jadval

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi davlat oliy ta'lim tashkilotlari budjet va budjetdan tashqari mablag'lar xarajatlari tarkibining yillar davomida o'zgarishi, (mln. so'm) [10]

Ko'rsatkichlar		Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar	Stipendiyalar	Kapital qo'yilmalar xarajatlari	Material qiymatliklarga qilingan xarajatlar
2019	Budjet mablag'lari	486659,2	294330,6	2769,9	76620,9
	Budjetdan tashqari mablag'lar	664565,6	699119,2	6080,5	53295,7
2020	Budjet mablag'lari	469035,3	345453,6	-	18610,7
	Budjetdan tashqari mablag'lar	1141062,3	617472,8	1209,0	106356,7
2021	Budjet mablag'lari	532523,5	418804,6	-	19032,4
	Budjetdan tashqari mablag'lar	1579305,2	221896,9	17497,0	156638,0
2022	Budjet mablag'lari	708537,8	591736,8	-	25854,0
	Budjetdan tashqari mablag'lar	2472261,9	133918,2	132300,0	247431,1
2023	Budjet mablag'lari	591296,9	790925,3	-	21472,4
	Budjetdan tashqari mablag'lar	3612781,6	150214,1	314129,6	298799,2

«Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqarish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari ko'rsatkichlariga va tejamkorlikning qat'iy rejimini hisobga olgan holda mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Xarajatlarni hisoblab

chiqarishda quyidagilarga amal qilinishi zarur: belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ularga taqdim etilgan budjet sohasidagi vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ-

huquqiy hujjatlarga; belgilangan tartibda tasdiqlangan budjet tashkilotlari xarajatlarining normativlariga; tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxleri va tariflariga).

Davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlari aniq maqsadlarga mo'ljallangan va vaqt bo'yicha qattiq tartibga solingandir. Tashkilot smetada ko'zda tutilmagan maqsadlarga pul mablag'laridan foydalanish huquqiga ega emas. Amalga oshirilayotgan barcha xarajatlar reja asosida ko'zlangan maqsadlarda va g'aznachilik tizimi orqali o'tkaziladi va smeta xarajatlariga asoslanganligi doimiy nazorat qilib boriladi.

Bugungi kunda davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlar hisobini tashkil qilish masalalari mamlakatda belgilab qo'yilgan qonun va qonunosti hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ular bo'yicha yuzaga kelgan munozarali vaziyatlar davlat moliyaviy nazorati va ichki audit xizmati xodimlari tomonidan doimiy o'rganilib, tahlil qilinib va nazorat qilib boriladi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat ta'lim tashkilotlari davlat budjeti mablag'larini belgilangan maqsadlar bo'yicha sarflash va ularni maqsadli yo'naltirishlari muhimdir. «Davlat ta'lim tashkilotlari budjet mablag'lari bo'yicha qilingan xarajatlari va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha qilingan xarajatlari rejalashtirilgan smeta bo'yicha amalga oshiriladi va har bir yo'nalish bo'yicha hisobotlar topshiriladi». Biz budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlarni ularning turkumlanishi bo'yicha aniqroq tahlil qilish uchun alohida ko'rib chiqishni lozim topdik.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra budjet mablag'laridan mehnatga haq to'lash xarajatlari 2019-yilda 486,659 mln. so'm bo'lsa, 2023-yilda o'sib, 591,297 mln. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkichda nisbatan barqaror o'sish kuzatilmoqda. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha esa, bu xarajatlar sezilarli darajada oshgan: 2019-yilda 664,566 mln. so'mdan 2023-yilda 3,612,782 mln. so'mga ko'paygan,

ya'ni deyarli 5,5 barobar ko'payish mavjud. Bu oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larga bog'liqligini va ulardan samarali foydalanilishini ko'rsatadi.

Budjet mablag'laridan stipendiyalar ham sezilarli o'sish ko'rsatgan: 2019-yilda 294,331 mln. so'mdan 2023-yilda 790,925 mln. so'mga. Bu talabalar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning oshganini bildiradi. Budjetdan tashqari mablag'larda esa stipendiyalar miqdori 2019-yildan boshlab 699,119 mln. so'mdan 150,214 mln. so'mga tushgan, 2021-yildagi keskin pasayishdan keyin kamayganligi kuzatilmoqda. Bu budjetdan tashqari mablag'larning boshqa yo'nalishlarga yo'naltirilganligini anglatadi.

Budjet mablag'larida kapital qo'yilmalar xarajatlari faqat 2019-yilda ko'rsatilgan va 2,770 mln. so'mni tashkil qilgan, keyingi yillarda bu xarajatlar budjet hisobidan amalga oshirilmagan yoki ko'rsatilmagan. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha kapital qo'yilmalar xarajatlari 2019-yildan 2023-yilgacha oshib, 2019-yilda 6,080 mln. so'mdan 2023-yilda 314,130 mln. so'mga yetgan. Bu, ayniqsa, investitsiyalarning budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ko'payotganligini bildiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar yillar davomida keskin oshib bormoqda, ayniqsa mehnatga haq to'lash, kapital qo'yilmalar va material qiymatliklarga sarflar. Bu oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari tarkibida budjetdan tashqari mablag'larning ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi. Budjet mablag'larining o'sish sur'ati sekinroq bo'lsa-da, talabalar stipendiyalari kabi ijtimoiy jihatdan muhim xarajatlar uchun doimiy ta'minot mavjud. Budjetdan tashqari mablag'lar esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiyalarga ko'proq imkoniyat yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mablag'larning o'sishi bilan birga, ularni samarali boshqarish, nazorat qilish va

aniq rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni maqbullashtirish imkonini beradi.

Budjet mablag'lari tarkibiga grant uchun ajratiladigan mablag'lar ham kiradi. Ayrim davlat ta'lim tashkilotlari grant mablag'lari harakatini alohida hisobraqamda yuritadi va ushbu mablag'lar bo'yicha alohida hisobot topshiradi. Guruhlar bo'yicha budjet mablag'lari xarajatlari budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlardan miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Budjetdan tashqari mablag'larga doir xarajatlar asosan davlat ta'lim tashkilotlarida to'lov – kontrakt mablag'lari hamda rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari xarajatlari ko'rinishida olib boriladi.

O'qitishning kontrakt shaklidan shu jumladan, oshirilgan to'lov-kontrakt asosida tushgan mablag'lar oliy ta'lim muassasasi daromadiga kiritiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasida quyidagilarga sarflash uchun taqsimlanishi mumkin: oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarishdan ajralgan holda kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalariga (xorijiy talabalardan tashqari) stipendiyalar to'lashga; oliy ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, shuningdek, yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga; oliy ta'lim muassasalarida bino va inshootlarni saqlash hamda kommunal xizmatlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga; mavjud kreditor qarzlarni uzishga; o'quv-laboratoriya binolari, talabalar turar joylari hamda boshqa bino va inshootlarni, asbob-uskunalarini joriy va kapital ta'mirlashga, oliy ta'lim muassasasining hududini va atrofini obodonlashtirishga, shuningdek, qurilish-tiklash ishlariga; o'quv, ilmiy-tadqiqot va laboratoriya jihozlari, yumshoq va qattiq inventarlar, mebellar, o'qitishning texnik vositalari, kompyuter texnikasi va ularning ehtiyot hamda butlovchi

qismlarini, kerakli materiallarni va boshqalarni sotib olish hamda ta'mirlash.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida qayd etish mumkinki, oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar, xarajatlar hisobi va ichki audit amaliyoti budjet va budjetdan tashqari mablag'larning harakati, ular bilan bog'liq daromad va xarajatlar, hisob-kitoblar hisobini tashkil etish, yuritish, hisobotlarni tuzish, nazoratini amalga oshirish jarayonlaridan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad hamda xarajatlar smetasi ijrosi hisobi har bir moliyalashtirish manbalari yuzasidan ularni paydo bo'lishi davriyligiga bog'liq tarzda alohida yuritiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida o'qitishning to'lov kontrakt shakli mablag'larining kelib tushishi o'quv yili bilan bog'liq bo'lsada, ushbu mablag'larga oid daromadlar, xarajatlar hamda hisob-kitoblar hisobi moliya yili mobaynida yuritiladi. Tahsil olayotgan talabalar qonunchilik talablariga asosan o'qitishning to'lov kontrakt mablag'larini o'quv yili mobaynida to'rt qismga ajratgan holda to'lashlari mumkin. Xarajatlar bo'lsa, moliya yili mobaynida amalga oshiriladi hamda ushbu xarajatlar bilan bog'liq holda pul mablag'lari sarfi amalga oshiriladi. Shu kabi jihatlar oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov kontrakt mablag'lari yuzasidan daromad hamda xarajatlar hisobi amaliyotidagi uslubiy asoslarni qaytadan ko'rib chiqishni talab qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasining beshta manbasi mavjud va shular hisobidan daromad hamda tushumlar hosil bo'ladi. Amaldagi qonunchilik talablariga ko'ra rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini vujudga kelishi va ularga oid xarajatlarni amalga oshirishning me'zonlari belgilangan. Mazkur jamg'armaning mablag'lari hisobini yuritish va nazoratida belgilangan tartiblarga amal qilish uchun tahliliy hisob ishlarini yuritish zarur sanaladi. Rivojlantirish

jamg'armasi bo'yicha mablag'lar hisobida oliy ta'lim tashkiloti faoliyatiga xos ishlab chiqarish faoliyati va uning natijalarini aniqlash talab etiladi. Vaqtincha bo'sh turgan mol-mulklar

ijarasiga oid to'lovlarning oldindan kelib tushishini avans to'lovlari sifati hamda muddati kechiktirilgan daromadlarda hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Needles B.E., Powers M., Crosson S.V. Principles of Accounting.* – Boston: Cengage Learning, 2019. – 928 p.
2. *Anthony R.N., Govindarajan V. Management Control Systems.* – New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 768 p.
3. *Bhimani A., Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Management and Cost Accounting.* – London: Pearson Education, 2021. – 944 p.
4. *Husanov T.Sh., Rahimov J.M. Davlat moliyasi. Darslik.* – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2020. – 456 b.
5. *Yusupova M.A. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari. Monografiya.* – Toshkent: «Ilm ziyo», 2021. – 204 b.
6. *To'xtaboyev N.A. Oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- maydagi "2021-2025- yillarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha konsepsiya to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2022-y.
9. Ilmiy izlanishlar natijasida muallif ishlanmasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://gov.uz/oz/edu>